

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 554 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safayev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIVAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLIVALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	



QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH

Mirzayev Komiljon Abdullajonovich

TDIU mustaqil izlanuvchi

E-mail: komiljon_mirzaev@mail.ru

ORCID: 0009-0009-9908-5123

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik faoliyatga qaratilgan investitsiyalarni buxgalteriya hisobida alohida obyekt sifatida aks ettirish zarurati tahlil qilingan. Amaldagi hisob siyosatida ekologik vositalar umumiy asosiy vositalar tarkibida yuritilishi ularning iqtisodiy samaradorligini aniq baholashga to'sqinlik qilayotgani aniqlangan. Shu munosabat bilan 0100 schyoti doirasida 0192 va 0193 subhisoblarni joriy etish taklif etiladi. Mazkur subhisoblar orqali chang ushlovchi, chiqindini qayta ishlovchi va atmosfera tozalovchi uskunalarni aniq tasniflash, amortizatsiyasini hisoblash va monitoringini olib borish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: ekologik aktivlar, buxgalteriya hisobi, asosiy vositalar, subhisoblar, schyotlar rejasi, ekologik investitsiyalar, ESG.

Abstract. This article analyzes the necessity of recognizing environmental assets as separate accounting objects in the construction materials industry. Current accounting practices in Uzbekistan combine environmental investments with general fixed assets, making it difficult to assess their economic effectiveness. The paper proposes introducing sub-accounts 0192 and 0193 within account 0100 to record filtration systems, recycling technologies, and emission-reduction equipment. The proposed model enables the classification, amortization tracking, and performance monitoring of environmental assets, supporting better financial reporting and ESG compliance.

Keywords: environmental assets, accounting, fixed assets, sub-accounts, chart of accounts, environmental investments, ESG.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость отражения экологических активов в бухгалтерском учёте предприятий промышленности строительных материалов в качестве самостоятельных объектов. Установлено, что существующая практика учёта приводит к обобщению данных, не позволяя проводить эффективный анализ и контроль. В связи с этим предлагается ввести субсчета 0192 и 0193 в рамках счёта 0100 «Основные средства». Это позволит классифицировать очистные сооружения, фильтрующее оборудование и другие экологические активы, а также отслеживать их износ и эффективность использования.

Ключевые слова: экологические активы, бухгалтерский учёт, основные средства, субсчета, план счетов, экологические инвестиции, ESG.

KIRISH

Atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bugungi kunda sanoat korxonalari oldida turgan strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qurilish materiallari sanoati yuqori energiya sarfi, chiqindilarning ko'pligi va tabiiy resurslardan keng miqyosda foydalanilishi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Ushbu omillar korxonalarning ekologik mas'uliyatini oshirish bilan birga, ekologik faoliyatga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyaviy jihatdan aniq aks ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda korxonalarda foydalanilayotgan ekologik yo'nalishdagi uskunalar — chang ushlovchi moslamalar, gaz tozalash inshootlari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari — ko'pincha buxgalteriya hisobida umumiy asosiy vositalar tarkibida yuritiladi. Bu esa ularning real qiymatini aniqlash, amortizatsiyasini to'g'ri hisoblash, foydalanish samaradorligini baholash va audit maqsadlari uchun zarur tahliliy axborotni shakllantirish imkoniyatini cheklaydi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, jumladan IAS 16 (Asosiy vositalar), IAS 37 (Majburiyatlar) va IFRS 6 (Mineral resurslarni o'rganish va baholash), ekologik aktivlarni alohida moliyaviy obyekt sifatida tan olish va ularning harakatini doimiy nazorat ostida yuritishni tavsiya etadi. Shunga qaramay, amaldagi milliy hisob

siyosatida ekologik investitsiyalar, odatda, ishlab chiqarish xarajatlari yoki asosiy vositalarning umumiy qiymati tarkibida aks ettiriladi.

Shu bois, ekologik aktivlarni hisobga olish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, ularni alohida subhisoblar orqali tasniflash, harakatini nazorat qilish va moliyaviy hisobotlarda shaffof aks ettirish zarurati dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan korporativ boshqaruv standartlari va barqarorlik hisobotlari joriy etilayotgan bir paytda, bu masala yanada dolzarb tus olmoqda.

Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatida ekologik aktivlarni alohida buxgalteriya obyekti sifatida hisobga olish zarurati asoslab beriladi, amaldagi hisob tizimidagi kamchiliklar tahlil qilinadi hamda xalqaro tajribaga asoslangan yangi hisob modeli taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik aktivlarni hisobga olish masalasi jahon va milliy buxgalteriya nazariyasi doirasida tobora dolzarb mavzuga aylanmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) ko'ra, ekologik faoliyatga qaratilgan vositalar va texnologiyalar, agar ular uzoq muddatda foyda keltirsa va nazorat qilinadigan aktiv sifatida e'tirof etilsa, alohida asosiy vosita sifatida buxgalteriya hisobotida aks ettirilishi lozim (IAS 16, 2021).

Rubanova N.N. o'z tadqiqotida quyidagicha ta'kidlaydi: "Ekologik faoliyatda foydalaniladigan texnik vositalar — bu faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi emas, balki atrof-muhitni himoya qiluvchi aktivlar bo'lib, ularning hisobini alohida yuritish zarur" [1].

Shibilyova O.V. esa ekologik xarajatlar va aktivlarni tahlil qilishda analitik hisob yuritish muhimligini qayd etadi: "Ekologik aktivlar bir vaqtning o'zida ijtimoiy majburiyatlarni va investitsion maqsadlarni aks ettiradi, shuning uchun ularni umumiy asosiy vositalar tarkibida emas, alohida obyekt sifatida yuritish zarur" [2].

Milliy tadqiqotlarda ham bu masalaga e'tibor ortmoqda. Xususan, Omanov S.Q. qurilish sanoatida ekologik yo'nalishdagi investitsiyalar hisobini avtomatlashtirilgan tizimlar asosida yuritish zarurligini asoslab beradi: "Korxonaning ekologik faoliyatiga tegishli har bir xarajat va aktivni subhisoblar orqali identifikatsiyalash moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi" [3].

Mirzayeva D.M. o'z dissertatsiyasida ekologik aktivlar tarkibini uch toifaga ajratgan: 1) atmosfera havosini tozalovchi vositalar; 2) chiqindilarni saralovchi texnologiyalar; 3) suv resurslarini muhofaza qiluvchi inshootlar. U quyidagicha ta'kidlaydi: "Har bir ekologik aktivning iqtisodiy ta'siri tahlil qilinmas ekan, korxonaning moliyaviy holati va ijtimoiy mas'uliyati to'liq baholab bo'lmaydi" [4].

Xalqaro amaliyotda esa ekologik aktivlar "environmental capital assets" deb yuritiladi va buxgalteriya standartlari asosida amortizatsiya, moliyaviy baholash, balansda e'tirof etish va reporting mexanizmlari orqali kuzatiladi [8]. Ushbu yondashuv Yevropa Ittifoqi va AQSHda korporativ barqarorlik hisobotlarini tayyorlashda asosiy mezonlardan biri sifatida tan olingan.

Bundan tashqari, xalqaro ilmiy manbalarda ham korxonaning ekologik aktivlari nafaqat moliyaviy foyda, balki reputatsion qiymat, ESG reytingi va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini belgilovchi asosiy vosita sifatida qaralmoqda [7].

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar asosida xulosa qilish mumkinki, ekologik aktivlarni alohida buxgalteriya obyekti sifatida hisobga olish nafaqat moliyaviy hisobotlar aniqligini oshiradi, balki ekologik xavfsizlik, barqarorlik va korxona imidjini ham mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy hujjatlar tahlili va amaliy misollar asosida ekologik aktivlarni hisobga olish modeli ishlab chiqildi. Qurilish materiallari sanoatining yetakchi vakillari — "Kizilkumsement", "Ahangarancement" va "Kuvasoyssement" korxonalarining 2020–2023 yillardagi moliyaviy hisobotlari o'rganildi. Hisob siyosati, schyotlar rejasi, asosiy vositalarning amortizatsiya hisoboti va ekologik xarajatlar ko'rsatkichi orqali amaldagi holat tahlil qilindi.

Shuningdek, ekologik aktivlarni alohida buxgalteriya schyotlari — 0192 "Atmosferani muhofaza qilishning asosiy vositalari" va 0193 "Chiqindilardan muhofaza qilishning asosiy vositalari" subhisoblarida yuritish modeli asosida hisob amaliyoti ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida qurilish materiallari sanoati korxonalarining ekologik faoliyatiga tegishli aktivlar mavjud buxgalteriya tizimida to'liq aks ettirilmaligi aniqlandi. Xususan, "Kizilkumsement", "Ahangarancement" va "Kuvasoyssement" korxonalarining 2020–2023 yillar davomida taqdim etgan moliyaviy hisobotlarida ekologik



yo'nalishdagi asosiy vositalar 0100 – “Asosiy vositalar” schyoti doirasida umumlashtirilgan holda qayd etilgan bo'lib, ularning ekologik funksiyasi va iqtisodiy samaradorligi alohida baholanmagan.

Tadqiqot davomida ekologik aktivlarni aniq tasniflash va ularni alohida buxgalteriya schyotlarida yuritish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkinligi asoslab berildi:

- ekologik investitsiyalar hajmini aniqlash;
- har bir ekologik aktivning amortizatsiyasi va foydalanish samaradorligini hisoblash;
- atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan vositalar ustidan nazoratni kuchaytirish;
- ESG ko'rsatkichlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Tadqiqot asosida ekologik aktivlar hisobini 0100 – “Asosiy vositalar” schyoti tarkibida 0192 va 0193 subhisoblar orqali yuritish modeli ishlab chiqildi. Ushbu subhisoblar orqali korxonalarda mavjud ekologik asosiy vositalar tasniflanadi va har bir obyektning moliyaviy harakati tahliliy hisobda aks ettiriladi.

1-jadval. Qurilish sanoatida ekologik aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish modeli

Schyot kodi	Subhisob nomi	Hisobga olinadigan aktivlar
0192	Atmosferani muhofaza qilishning asosiy vositalari	Chang ushlovchi moslamalar, gaz tozalagichlar, tutun filtratsiya tizimlari
0193	Chiqindilardan muhofaza qilishning asosiy vositalari	Chiqindini saralovchi qurilmalar, qayta ishlash uskunalari, konteyner tizimlari

Mazkur hisob modeli asosida ekologik investitsiyalarni aniqlash, moliyalashtirish manbalarini tasniflash (masalan, o'z mablag'i, grant, davlat kompensatsiyasi) va ularning iqtisodiy ta'sirini tahlil qilish imkoniyati yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, korxonaning ekologik strategiyasi moliyaviy hisobda shaffof aks ettiriladi, bu esa audit va hisobot sifatini oshiradi.

Shuningdek, korxonalarda mavjud bo'lgan ekologik aktivlar qiymati, ularning eskirish darajasi, samarali ishlash muddati, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari va ularni yangilash ehtiyoji bo'yicha tahlil jadvali shakllantirildi. Bu yondashuv asosida qaror qabul qiluvchi rahbariyat uchun ekologik investitsiyalarning foyda/risk nisbatini baholovchi analitik baza yaratiladi.

Umuman olganda, ekologik aktivlarni alohida hisobga olish modeli korxonaning nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini ham aks ettiruvchi muhim buxgalteriya vositasi sifatida shakllanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish materiallari sanoati korxonalarning ekologik faoliyat bilan bog'liq xarajatlari va aktivlari amaldagi buxgalteriya hisobotida umumlashtirilgan tartibda aks ettirilmogda. Aynan ekologik maqsadlarda foydalanilayotgan uskunalar, qurilmalar va infratuzilmalar 0100 – “Asosiy vositalar” schyotining umumiy tuzilmasi ichida tan olinib, ularning ekologik funksiyasi tahliliy jihatdan ajratilmagan.

Bu holat bir nechta muhim muammolarni yuzaga keltirmogda:

- ekologik investitsiyalarning aniq hajmi va ularning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilmayapti;
- atrof-muhitga yetkazilgan zarar yoki oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan texnik harakatlar moliyaviy hisobotlarda to'liq ko'rsatilmayapti;
- ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari bo'yicha xalqaro hisobot shakllarini tayyorlashda zarur moliyaviy axborot yetishmayapti.

Milliy korxonalar faoliyatini tahlil qilishda quyidagi statistik tafovutlar aniqlandi:

2-jadval. Qurilish sanoatida ekologik aktivlar buxgalteriya hisobida aks ettirilgan holat (2020–2023)

Korxona nomi	Ekologik aktivlar (mlrd so'm)	Umumiy asosiy vositalar ulushidagi foiz (%)	Maxsus subhisob mavjudligi
Kizilkumsement	42,3	4,8%	Yo'q
Ahangarancement	38,7	4,1%	Yo'q
Kuvasoysement	46,2	5,2%	Yo'q

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonalar ekologik faoliyatga sezilarli darajada sarmoya kiritayotgan bo'lsa-da, bu xarajatlar moliyaviy hisobotda umumiy aktivlar tarkibida yirik ustunlik sifatida ajratilmagan. Shuningdek, hech bir korxonada 0192 yoki 0193 kabi ekologik yo'nalishdagi subhisoblar joriy etilmagan. Bu esa auditorlik tekshiruvlari, ekologik risk baholash va moliyaviy rejalashtirish jarayonlarini murakkablashtiradi.

Xalqaro amaliyotda esa ekologik aktivlar mustaqil obyekt sifatida tan olinadi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi doirasida faoliyat yurituvchi sement ishlab chiqaruvchi “LafargeHolcim” kompaniyasi yillik moliyaviy hisobotlarida ekologik aktivlar va xarajatlarni alohida bo'lim sifatida ko'rsatadi, jumladan:

- “Emissions reduction equipment” – 67 mln yevro;
- “Waste recycling facilities” – 48 mln yevro;
- “Green R&D expenditures” – 25 mln yevro (LafargeHolcim, 2022).

Shunday yondashuv milliy amaliyotga tatbiq etilishi uchun 0100 schyotida 0192 – “Atmosferani muhofaza qilishning asosiy vositalari” va 0193 – “Chiqindilardan muhofaza qilishning asosiy vositalari” kabi subhisoblarni joriy etish taklif qilindi.

3-jadval. Ekologik aktivlarni alohida hisobga olish orqali erishiladigan afzalliklar

Ko'rsatkich	Amaldagi tizimda	Taklif etilayotgan modelda
Investitsiya hajmini aniqlik bilan hisoblash	Yo'q	Mavjud
Amortizatsiyani ekologik vazifaga bog'lash	Cheklangan	To'liq mavjud
ESG hisobotlari uchun tahliliy ma'lumot	Yetarli emas	Yaratiladi
Auditga tayyorlik darajasi	Past	Yuqori
Davlat nazorati va subvensiyalar uchun asos	Yetishmaydi	Asosli va aniqlashtirilgan

Shunday qilib, ekologik aktivlarni alohida subhisoblarda yuritish orqali moliyaviy hisobotlar sifati, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi, xalqaro standartlarga moslik va auditorlik tekshiruvlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bu model barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilayotgan zamonaviy sanoat korxonalari uchun muhim moliyaviy instrument hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ekologik faoliyati bugungi global ekologik muammolar fonida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada ekologik aktivlarni moliyaviy hisobda alohida obyekt sifatida aks ettirish zarurati ilmiy asoslangan holda tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, amaldagi buxgalteriya hisob tizimi ekologik investitsiyalarni umumlashtirilgan tarzda aks ettiradi, bu esa ularning iqtisodiy ta'sirini aniqlash, moliyaviy samaradorligini baholash va ESG ko'rsatkichlarini shakllantirishda sezilarli cheklavlarni yuzaga keltiradi.

Taklif etilgan 0192 va 0193 subhisoblar orqali ekologik aktivlarni texnologik vazifasi bo'yicha tasniflash va ularni aniq monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bu nafaqat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi, balki korxonalarning ijtimoiy mas'uliyatini, ekologik xavfsizlikni va audit sifatini ham yuqori darajaga ko'taradi.

Ekologik aktivlar buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv tizimining muhim elementi bo'lishi kerak. Ularni alohida hisobga olish barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan muhim amaliy mexanizm sifatida taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rubanova N.N. Buxgalteriya hisobi tizimida ekologik faoliyatni aks ettirish muammolari // Экологический учет. – 2005. – №2. – С. 45–51.
2. Shibilyova O.V. Ekologik faoliyatning iqtisodiy tahlili va hisobga olish xususiyatlari: monografiya. – Moskva: Finansy i Statistika, 2010. – 156 s.
3. Omanov S.Q. Qurilish sanoati korxonalarida ekologik xarajatlarni hisobga olishni takomillashtirish yo'llari // Buxgalteriya hisobi va audit. – 2024. – №1. – B. 32–39.
4. Mirzayeva D.M. Sanoat korxonalarida ekologik faoliyatni moliyaviy baholash va hisob tizimini takomillashtirish: PhD dissertatsiya. – Toshkent: TDIU, 2021. – 142 b.
5. IFRS Foundation. International Accounting Standard (IAS) 16: Property, Plant and Equipment. – London: IFRS Publications, 2021.
6. IFRS Foundation. IAS 37: Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. – London: IFRS Publications, 2021.
7. Kovalev V.V., Pavlova E.A. Ekologik menejment va buxgalteriya hisobi integratsiyasi // Корпоративные финансы. – 2019. – №3(55). – С. 21–29.
8. Rahman A., Lawrence S., Lokman N. Environmental accounting and reporting practices: A study of listed companies in Malaysia // Journal of Cleaner Production. – 2017. – Vol. 142. – P. 1200–1210.
9. LafargeHolcim Ltd. Integrated Annual Report 2022. – Zurich: LafargeHolcim, 2023. – 110 p.
10. Nurmatov B.T. Qurilish korxonalarida ekologik investitsiyalarni hisobga olishda xalqaro tajriba // Ilm-fan va taraqqiyot. – 2022. – №4. – B. 58–63.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100